

**Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan xususiy tadbirkorlarga telefon
aloqasi xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha
SHARTNOMA № 251024**

Kitob tuman

2022 yil «20» yanvar

Bundan keyin "Operator" deb nomlanuvchi telekommunikatsiya operatori (vakolatli shaxs)

Kitob Telekommunikatsiya boglamasi

(operatorning nomlaniishi)

«Uzbektelekom» AK "Qashkadaryo" filiali

(litsenziya bergan tashkilotning nomi)

tomonidan berilgan litsenziya va Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi

Diyorov Xusniddin Muxammadiyevich

(rahbarning mansabi, ism-familiyasi)

timsolida bir tomondan,

Yuridik shaxs,

Byudjetdan mablag oluvchi tashkilot nomi: **Kitob tuman maktabgacha ta'lif bo'limi**

Manzili: **Kitob tuman B.I.Yuli kuchasi 145 uy**

Rahbar, F.I.Sh. **Kenjaev Mansur Jamolovich**

bundan keyin "Abonent" deb nomlanuvchi ikkinchi tomondan quyidagi shartnomani shu haqda tuzdilar

1. SHARTNOMA PREDMETI

Operator telefon aloqasining universal (asosiy) va qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish, Abonet esa mazkur xizmatlardan foydalanish, xamda xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatini oladi.

1.1. Abonent toifasi - byudjet

1.2. Shartnomaning tuzilgan vaktdagi umumiy yillik baxosi **780 000 (Etti yuz sakson ming)** sumni tashkil etadi.

2022 yil jami	1 - chorak			2 - chorak			3 - chorak			4 - chorak		
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
byudjet	260000	260000	260000									

1.3. Byudjet tashkilotining yil davomida smeta xaratjatlariga kiritiladigan uzgarishlar doirasida xizmat kursatuvchi, xizmat oluvchi va xizmat xakini tulovchilar tomonidan uzaro kelishilgan xolda shartnoma summasiga uzgartirishlar kiritishga xaklidirlar.

2. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Operatorning majburiyatları:

2.1.1. Belgilangan sifat darajasida telefon aloqasi xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatish.

2.1.2. Ommaviy axborot vositalarida, Internet, aholi gavjum joylarda, elonlar berish yordamida korxona faoliyati, yangi ATS larni ishga tushirish, yangi xizmat turlari, telekommunikatsiya xizmatlari uchun belgilangan tariflarning o'zgarishi va bu xizmatlarni ko'rsatish tartiblari haqida xabar berish.

2.1.3. Universal xizmatlarga tariflar o'zgarganligini kamida 15 kun oldin ommaviy axborot vositalarida elon qilish.

2.1.4. Abonentning aybisiz telefon aloqasi buzilganda abonent tomonidan tamirlash byurosiga talabnoma tushgan vaqtadan boshlab abonent uskunasi ishlamagan kunlar uchun abonent to'lovlarini qayta hisoblab chiqish. Qayta hisob-kitoblar ma'lumot ro'yxatga olingan kundan etiboran soat 00.00 dan boshlab to'liq sutkalar uchun amalga oshiriladi. Texnik sabablarga ko'ra abonent raqamining o'zgarishini kamida 10 kun oldin abonentga yozma ravishda malum qilish. O'rnatilgan tartibda mahalliy telefon so'zlashuvlari to'g'risidagi malumot-rasshifrovka (detalizatsiya)ni qo'shimcha to'lov evaziga Abonentga berish.

2.1.5. Abonent tomonidan sotib olingan telematik xizmatlar (telefaks, teleks, vedeoteks va hokazolar)ning oxirgi uskunalarini shartnomaga qo'shimcha kiritgan holda (8-bo'limga binoan) ro'yxatdan o'tkazish.

2.1.6. Operator, shuningdek, "Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi xizmatlarini ko'rsatish qoidalari"da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega (bundan keyin matnda "Qoidalar").

2.1.7 Operetor kursatilgan xizmatlar xisob-varak fakturalarini xar oyda byudjet tashkilotiga takdim etib borish majburiyatini oladi.

2.Opirator huquqlari:

2.2.1. Yangi telefon stansiyalari ishga tushishi va telefon tarmoqlari rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan amaldagi "Qoidalar"ga muvofiq Abonentning ruxsatisiz, ammo unga o'z vaqtida xabar bergan holda, telefon raqamini bepul o'zgartirib qo'yish.

2.2.2. Operator abonent liniyalariga tegishli sertifikati bo'lмаган uskunalar (telefon apparatlari, telematik xizmat uskunalar, axborot uzatgichlar, radiotelefonlar, radiouzaytirgich, PK, AON va boshqalar)ni o'chirishni operatorning texnik komissiyasi tomonidan dalolatnomalardan so'ng Abonentdan talab qilish.

2.2.3. Quyidagi hollarda abonent uskunasini telefon tarmog'iga ularishini to'xtatish:

- mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi uchun 4.6., 4.6.1.-bandlarga asosan aloqa xizmatlari to'lovlar to'lanmaganda (bunda telefon aloqasini uzish haqida abonent kamida 3 kun oldin telefon bilan ogohlantirilishi zarur);
- abonent tomonidan oxirgi qurilmalarni ishlash qoidalari buzilganda va buning natijasida operator kommunatsion uskunalarining normal ishlashiga xalaqit bera hollarda;

3.1.7. - band buzilganda, operator texnik komissiyasining dalolatnomasi tuzilib, buzilishlar bartaraf etilgunga qadar.

Shartnomani qayta tiklash va oxirgi qurilmalarni ularash belgilangan tartibda, kamchiliklar tuzatib bo'lingandan so'ng va Abonent tomonidan mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon aloqasining telekommunikatsiyalar xizmatlari uchun haq to'langandan keyin amalga oshiriladi(aloha xizmatlaridan foydalanish to'xtatib qo'yilgan muddat ham kiradi).

2.2.4. Agar Abonent hisob-kitob davridan keyin 2 oy davomida telefon aloqasi xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirmasa yoki

3.1.7.-bandlarni buzishga yo'l qo'ysa, ushbu shartnomasi bir tomonlama bekor qilinadi.

2.2.5. Operator "Qoidalar"da belgilab berilgan boshqa bir qator huquqlarga ham ega.

3. ABONENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Har chorakda kamida 1-marta Operator bilan o'zaro hisob-kitoblarni aniqlash maqsadida solishtirish dalolatnomasi tuzish.

3.2. Operator hisobidagi yoki u tomonidan ta'mirlanadigan Abonent foydalaniladigan uy telefon simlari va boshqa uskunalarini ishga yaroqli holatda saqlash. Abonentga tegishli bo'lgan yoki Abonent tomonidan ijara olingan telekommunikatsiya vositalarining texnik me'yorlarga muvofiq bo'lishini ta'minlash.

3.3. Aloqa buzilishlari haqida telekommunikatsiya bog'lamasining ta'mirlash byurosiga o'z vaqtida xabar berish.

3.4. Korxonaning nomi, rekvizitlari o'zgarganda, xonani ijara berish bo'yicha, bir oy muddat ichida yozma ravishda, sanasini ko'rsatgan holda Operatorga xabar qilish va amaldagi tariflar bo'yicha to'lovlar evaziga sharnomani qayta rasmiylashtirish yoki uni bekor qilish. Ijara muddati tugashi bilan yoki ijara berish bo'yicha shartnomasi bekor qilinadigan bo'lsa, telefon aloqasi xizmatini ko'rsatish bo'yicha tuzilgan shartnomasi ijara oluvchidan ijara beruvchi bepul qayta rasmiylashtirilishi mumkin. Ijaraga beruvchi ijara shartnomasini bekor qila turib, ijara oluvchining Operator oldidagi qarzlarini uzishini nazorat qiladi va qarzlar mavjud bo'lgan taqdirda belgilangan tartibda javobgar bo'lib hisoblanadi.

3.5. Abonentning aloqa "Qoidalar"ini qay darajada bajarayotganini yoki abonent buyurtmasiga asosan ta'mirlash uchun kelgan Operator xodimini (agar u rasmli yopishtirilgan, korxona muhri bosilgan, amal qilish muddati ko'rsatilgan guvohnomaga ega bo'lsa) binoga kirishga ruxsat etish. Bunda Operator xodimida bajariladigan ishlarni naryadi ham bo'lishi zarur.

3.6. Abonent uskunasidan pullik xizmat ko'rsatish uchun taksofon sifatida, Internetga kirish va hokazo maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Operator tomonidan ajratilgan telefon raqamlaridan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish "Qoidalar"ga belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu band buzilgan taqdirda Operator Abonentning telekommunikatsiya tarmog'iga kirishini operator texnik komissiyasi tomonidan dalolatnomalardan tuzilib, kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Abonent tomonidan mazkur holatlar takrorlanganda shartnomasi bir tomonlama bekor qilinadi.

3.7. Faqat sertifikatlangan telefon apparatlari va boshqa uskunalaridan abonent uskunasi sifatida foydalanish. Muvofiqlik sertifikati bo'lмаган, telefon raqamini avtomatik aniqlash uskunasi(AON)dan foydalanmaslik.

3.8. Abonent telefonlaridan va boshqa oxirgi qurilmalardan amalga oshirilgan mahalliy, shaharlararo, xalqaro telefon so'zlashuvlari uchun to'lovlarini to'liq 4.3 – bandga asosan amalga oshirish.

3.9. Abonentlik qurilmasini o'zboshimchalik bilan o'rnatish va parallel telefon apparatlari yoki boshqa radio aloqasi, telematik xizmatlar va axborot uzatgichlariga ularash ta'qilqanadi. Bu qurilmalarni ularash operatorga ma'lum qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgach amalga oshiriladi. Agar, Abonent tomonidan o'zboshimchalik bilan abonent liniyasiga ulangan qurilmaning ularish vaqtini aniqlash imkoniyati bo'lmasa, abonent to'lovi joriy yilning boshidan hisoblab undiriladi.

Radiotelefonlar va boshqa radioelektron vositalari (10 mVt quvvatlari simsiz telefonlar bundan mustasno) abonent qurilmasi sifatida ulangan taqdirda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish Agentligi yoki uning vakolatli organidan bu qurilmalardan foydalanishga ruxsatnomasi olinishi zarur.

3.10. Telekommunikatsiya tarmoqlari ish sifatini pasaaytirishga yoki ularni shikastlanishiga qaratilgan hatti-harakatlarga yo'l qo'yimasligi zarur.

3.11. Abonent "Qoidalar"da belgilab berilgan boshqa bir qator majburiyatlarga ham ega.

3.12. Abonent kursatilgan xizmatlar xakkini tulash uchun "Tulovchiga" xar oyda xisob-varak fakturalar nusxasini yetkazib boradi.

3.13. Abonent fakatgina xarajatlar smetasida aloqa xizmatlari uchun 2022-yilda ajratilgan mablaglar doirasida shartnomanining 1.2 bandida kursatilgan (byudjet xisobidan) tulovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3.14. Abonent tomonidan byudjetdan mablag oluvchiga ko'rsatiladigan telefon aloqasi xizmatlariga qonunchilik asosida belgilab beriladigan Uzbekiston Respublikasida amaldagi tariflar bo'yicha haq to'lanadi.

3.15. Telekommunikatsiya xizmatlari uchun to'lovlar, naqd pulsiz byudjet tashkilotining xarajatlar smetasida kuzda tutilgan mablaglar doirasidan chikmagan xolda mazkur shartnomanining 1.2. bandidagi byudjet xisobidan tulanadigan katorida kursatilgan summa asosida xar chorakning uchdan bir kismi doirasida oyma –oy tulovni amalga oshiradi.

4. XIZMATLARGA HAQ TO'LASH.

4.1. Abonent smeta xarajati mablaglari doirasida shartnomaning 1.2 bandiga binoan joriy oy uchun oldindan 100 % tulovni xar oyning 20-sanasigacha xizmat xakini tulaydi, smetada ajratilgan mablaglardan ortikcha kursatilgan xizmat uchun byudjet tashkiloti uzining maxsus xisob-rakamidan tulashni uz zimmasiga oladi.

4.2. Mahalliy, shaharlарaro va xalqaro telefon aloqasi uchun to'lovlar:

- oldindan to'lov (bunak) yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.3. Oldindan bunak tariqasidagi to'lovlar kamida 1 oy oldin, lekin 12 oydan ko'p bo'lmagan muddat uchun amalgा oshirilishi mumkin.

4.4. Telefon aloqasi xizmatlari uchun oldindan to'langan bunak summasi operatorning billing tizimi tomonidan quyidagi ketma-ketlikda taqsimlanib to'lanadi:

- abonentlik to'lovi va qo'shimcha xizmat turlari;
- hisoblagichlar;
- shaharlарaro va xalqaro so'zlashuvlar.

Ushbu bandda ko'rsatilgan xizmatlarga tariflar oshgan taqdirda, ular bo'yicha hisob-kitoblar bunak summasi tugagunga qadar amalda bo'lgan avvalgi tariflar bo'yicha amalgа oshiriladi. (Agar bu xizmatlar bo'yicha to'lovlar universal xizmatlarga tariflarning o'zgarishi to'g'risida e'lon berilishidan oldin amalgа oshirilgan bo'lsa).

4.5. Mahalliy so'zlashuvlar (vaqtbay asosida to'lov tizimi joriy etilganda), shaharlарaro va xalqaro telefon aloqasidan foydalanganligi uchun to'lov hisob varag'iga asosan (axborot uzatish va telematik xizmatlardan foydalilanligi uchun to'lovlar ham shunga kiradi), hisob varag'ida ko'rsatilgan sanadan boshlab 3 bank kuni ichida amalgа oshiriladi.

4.2.1. Hisob-kitob qilingan oydan keyingi oyning 10-sanasigacha abonent "Operator"ning abonentlar bo'limiga ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlari uchun hisob-varaq fakturasini olish uchun kelishi kerak, ko'rsatilgan muddatda kelmagan taqdirda telefon o'rnatilgan tartibda o'chirib qo'yiladi.

4.2.2. Abonent xohishiga ko'ra operator shaharlарaro va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumot (rasshifrovka)ni elektron variant(fayl holati)da berishi mumkin.

4.2.3. Abonent shaharlарaro va xalqaro so'zlashuvlar bo'yicha ma'lumotni takroriy so'ragan hollarda undan qo'shimcha ravishda 300 so'm, agar elektron variant(fayl holati)da bo'lsa 100 so'm (har bir kompyuter varag'i uchun) olinadi. Mazkur to'lovlar aloqa xizmatlari tariflari o'zgarganida qayta ko'rib chiqiladi.

4.6. Belgilangan muddatda aloqa xizmatlari to'lovlar to'lanmasa, telefon o'chirib qo'yiladi, bunda operator shartnomanini bekor qilish va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq qarzlarini undirib olish huquqiga ega.

Agar Abonent hisob-kitob davridan keyingi 2 oy davomida telekommunikatsiya xizmatlari uchun, shu jumladan, telefon o'chirib qo'yilgan vaqt uchun qarzlarini to'lamasa, Operator "Abonent" bilan kelishilgan xolda shartnomanini bekor qilish va qarzlarini o'rnatilgan tartibda undirib olish huquqiga ega. Qaytadan telefon yoki boshqa oxirgi qurilmani o'rnatish ariza berilib tegishli to'lovlar amalgа oshirilgach amalgа oshiriladi.

4.7. Agar abonent to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdoriga, so'zlashuv vaqtini va bu so'zlashuv uning telefoniga tegishli ekanligiga norozi bo'lsa, u hisob varag'ini olgandan so'ng 30 kun davomida raddiya yozishi mumkin. 30 kundan so'ng e'tirozlar qabul qilinmaydi. Tekshiruv natijalari Abonentni qanoatlantirmasa sudga murojaat qilishi mumkin.

4.8. Ushbu shartnomaning 4.8-bandи bo'yicha tekshiruv o'tkazilayotganda telefon shaharlарaro va xalqaro so'zlashuvlarga chiqish kodi(8)siz ishlatib qo'yiladi.

4.9. Har oyning 1-chi kuni holatida debitor qarzdorlik mavjud bo'lsa, "Operator" qarzdorlik summasining 0,1% miqdorida to'lovnинг har bir kechiktirilgan kuni uchun, bu qarzdorlik to'liq undirib olinguncha qadar penya hisoblaydi.

4.10. Abonentning aybi bilan telefon yoki boshqa oxirgi qurilma ishlamagan paytda ulardan foydalanish bo'yicha abonent to'lovlar to'liq miqdorda undirib olinadi.

4.11. Xalqaro va shaharlарaro avtomatik telefon aloqasidan foydalaniyganda, to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqtini so'zlashuv boshlangan vaqtidan hisobga olinadi. Telefonga ulangan biror bir texnik uskuna (faks, avtomatik javob beruvchi, raqamni aniqlovchi va hokazolar) bilan so'zlashuv amalgа oshirilganda to'lanishi lozim bo'lgan so'zlashuv vaqtini ana shu uskunalar ishga tushgan paytdan boshlab hisobga olinadi.

4.12. A. Byudjet tashkilotlar uchun 1 oylik telefon tulovi:

- Shaxar telefon uchun:	1800 sum
- Kishlok telefon uchun:	1900 sum

- 1 ta telefon Kitob shaxri ichida xar oyda 180 minutdan oshgan xar bir minut vakt uchun 4 (turt) sum mikdorida pul tulanadi.

B. Shaxarlарaro suzlashuvlar uchun kuyidagicha tarif

- 100 km gacha	- 40 sum
- 101 km dan 300 km gacha	- 55 sum
- 301 km dan 600 km gacha	- 70 sum
- 601 km dan yukori	- 90 sum

Mijozlarni schetida avans summasi bulmasa xar bir shaxarlарaro suzlashuvlar uchun kushimcha 25 sumdan xisoblanadi.

5 . NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Nizolarni hal etish chog'ida tomonlar o'zaro kelishuvga binoan ish tutadilar.

5.2. Tomonlar o'zaro kelisha olmagan hollarda, nizolar Iqitsodiy sudida hal etiladi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma shartlarini tomonlar bajarmagan taqdirda ularning mas'uliyati O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi", "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risi"gi qonunlari, "Umumiy foydalishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarida telefon aloqasi

xizmatlarini ko'rsatish qoidalari" va O'zbekiston Respublikasining boshqa bir qator amaldagi qonunchilik hujjatlariga muv
tomonlarning javobgarliklari ko'rib chiqiladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlarning xohish-istagiga mutlaqo bog'liq bo'lмаган hollarda (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoitlari, hukumat
chora-tadbirlari, hokimiyyat idoralari qarorlari, harbiy to'qnashuvlar, ichki tartibsizliklar va boshqa holatlarda) tomonlarning o'z
majburiyatlarini bajarmasliklari ushbu shartnomani ijro etish buzilgan deb hisoblanmaydi, tomonlarning shartnomani bajarish
muddatlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar bartaraf etib bo'lingunga qadar keyinga suriladi.

7.2. Fors-major holatlariga tayanib ish ko'rvuchi tomon vakolatli davlat organining tasdiqlangan tegishli hujjatini taqdim
etishi kerak.

8. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

8.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha Bitimni rasmiylashtirish yo'li
bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va
tomonlar uni imzolaganlaridagina haqqoniydir.

Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlari uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi, ular albatta
inobatga olinishi zarur.

8.2. Shartnoma qonunchilik o'zgarganda, "Qoidalar"da va O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab
berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Ushbu shartnoma tuman Gaznachilik tomonidan ruyxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha
amalda bo'ladi.

9.2. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- tomonlarning kelishuviga muvofiq;
- tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

9.3. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun
bir nusxadan beriladi.

10. TOMONLAR REKVIZITI

«Operator»

Kitob Telekom boglamasi
(ijrochining nomi)

Manzili : B.Ipak yuli 3 uy
tel\faks: **54-25-360**
x\r: **20210000204074838386**
bank nomi : Karshi Alokabank
MFO : 00401 INN : **203366731**
IFUT : **60100**

Raxbar : X.M.Diyorov
(F.I.Sh.)

(imzo)



« Abonent »


Kitob tuman maktabgacha ta'lim bo'limi
(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

manzili **Kitob sh. B.I.Yuli kuchasi № 45**
tel\faks **75-542-73-16**
sh/x\r: **100022860102327091100251024**
INN **305153637 IFUT 85100**

Uz.Res.Moliya Vazirligi Gaznachiligi
x\r : 23402000300100001010
bank nomi : Toshkent Markaziy bank XKKM
MFO : 00014 INN : 201122919

Raxbar : **M.Kenjaev**
(imzo) 
F.I.Sh

M.U.



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi.

Shartnoma

2. Loyihaning nomi.

Kitob tuman maktabgacha ta`lim bo`limi hamda Kitob Telekom boglamasi korxonasi o`rtasidagi 780.000 (yetti yuz saksan ming) so`mlik telefon aloqasining universal (asosiy) va qo‘sishimcha xizmatlarini ko‘rsatish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Kitob tuman maktabgacha ta`lim bo`limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa olish uchun 8-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti

I. Salomov



10-yanvar 2022-yil